

6-SINF ONA TILI DARSЛИGIDAGI FE'L VA SIFAT MAVZUSINI  
TUSHUNTIRISHDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH

Jumaniyazova Dilnoza Zaripboyevna

O'zXIA akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Ona tilidarslarida ijodiy topshiriqlarni ta'lif jarayoniga tatbiq qilish uslublari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *multimedia, ta'lif tizimi, metodika, pedagog, mustaqil topshiriqlar.*

Ona tili barcha bilimlarni o'rganishda eng muhim vositadir, u insonning ijtimoiy hayotida uchraydigan barcha ishlар uchun zarurdir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi, tarbiyaviy va boshqa gumanitar fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Ona tili o'quvchining umumiylara taraqqiyotida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham ahamiyatlidir.

Ona tili, ayniqsa, uning yozma shakli butun madaniyatimiz boyliklarini, fan-texnika yutuqlarini avaylab saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi yagona xazinadir, ya'ni u orqali biz milliy qadriyatlarimiz haqida ma'lumot olishimiz, bugungi fan taraqqiyoti natijasida vujudga kelayotgan yangiliklar bilan tanishishimiz mumkin.

Demak, adabiyot ham, tarix ham, madaniyat ham – hamma meros ona tilida o'rganiladi. Bundan tashqari, ona tilini chuqur va to'la o'rganmay turib boshqa bir chet tilini puxta o'rganish mumkin emas, chunki o'z ona tilini bilmagan inson o'zgalar tiliga tushuna olmaydi. Chet tilini o'rganishda esa ona tiliga qiyoslab o'rganish katta samara beradi. Demak, biz o'zbek tili vositasida boshqa chet tillarini o'rganish imkoniyatiga ham ega ekanmiz.

Maktab jamiyatning kelgusi a'zolarini tarbiyalab yetishtiradi. Maktabni tamomlagan o'quvchi ijtimoiy hayotdan o'rinn oladi. Bunda unga, ayniqsa, ona tilidan bilganlari, to'g'ri yozish va o'qish malakalari, mazmunli va chiroyli so'zlash san'ati, ish qog'ozlari bilan muomala qila olish o'quvchiga qo'l keladi. Shuning uchun, ona tili darslarida nazariya va amaliyotni o'zaro bog'lash juda muhimdir. O'quvchilarning grammatika, orfografiya va punktuatsiyaga oid nazariy bilimlar bilan amaliy tayyoragarligi, ayniqsa, og'zaki va yozma nutq madaniyati hamda savodxonligi orasida ma'lum farq bo'lishi mumkin.<sup>12</sup>

Ona tili ta'limalda mustaqillik yillarda tashlangan ulkan qadam "O'zbek maktablarida ona tilini o'qitish Konsepsiysi" bo'ldi. Mazkur hujjat 1993-yil 15-oktabrda O'zbekiston Respublikasi XTV tomonidan tasdiqlangan bo'lib, "Maktabda ona tili o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini

<sup>12</sup> Yusupova Sh. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirish. F.f.n.dis. – T.: 1998. B.47.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shakllantirish va rivojlantirishdan iborat,” – deb belgilandi<sup>13</sup>. Maktabda ona tili ta’limiga qo‘yilgan muhim talablardan biri o‘quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Ma’lumki, kishilar o‘z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan munosabatda bo‘ladilar. O‘zlarini o‘rab olgan borliqdagi voqeа-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma’lum qiladilar. Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Fikr esa faqat til yordamida yuzaga chiqadi. Shuning uchun, har bir kishi tildan foydalana bilishi va, avvalo, uning o‘zini to‘la-to‘kis o‘rganib olishga harakat qilishi zarur.

O‘quv mashg‘ulotlari davlat ta’lim standartlari talablari asosida tuzilgan dasturlar, dasturlarda taqsimlangan soatlar asosida olib boriladi. Maktabda olib boriladigan mashg‘ulotlar yangi materiallarni o‘rganish darsi, bilimlarni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o‘zlashtirilganligini tekshirish (baholash) darslariga bo‘linadi. Mana shuni hisobga olgan o‘qituvchi multimediali dars mashg‘ulotini bir soatga mo‘ljallangan reja asosida olib borishi kerak bo‘ladi. Bunda yangi materiallarni o‘rganishda multimedia kompyuter asosida olib borish texnologiyasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) O‘quvchilar sinfonadagi kompyuterlar soniga qarab bir yoki ikkitadan uning qarshisiga joylashishadi;
- 2) Kompyuter xotirasiga joylashtirilgan yoki diskka yozilgan o‘quv materiallarini ekranga chiqaradi;
- 3) O‘quvchilarning diqqati kompyuter ekranida chiqqan materiallarga qaratiladi;
- 4) O‘quvchilarning qanday topshiriqlarni bajarishi uchun ular bilan savol-javob o‘tkaziladi;
- 5) O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni kompyuterda mustaqil bajarishga kirishadi;
- 6) O‘quvchilarning o‘rgangan o‘quv materiallari savollar asosida mustahkamlanadi, buni yana bir bor kompyuterda bajarib mustahkamlanadi;
- 7) O‘quvchilarning kompyuterda o‘zlashtirgan bilimlari o‘qituvchi tomonidan baholanib, rag‘batlantirib boriladi;
- 8) O‘rganilgan material bo‘yicha mustaqil bajarib kelish uchun uyga vazifa beriladi<sup>14</sup>. Bu dars jarayonida kompyuterdan foydalanishning umumiylari tartibi hisoblanadi. Biroq ushbu tartiblarga har bir o‘qituvchi o‘zicha yondashishi mumkin. Kompyuterdagи loyihami qanday tayyorlash o‘qituvchining ijodkorligiga bog‘liq.

Ona tili ta’limining samaradorligini oshirish choralaridan biri o‘quvchi yashab turgan mahalliy o‘lka materiallaridan foydalanishdir. Mashg‘ulotlarda mahalliy o‘lka materiallaridan foydalanib, o‘quvchilar bilan yozma va og‘zaki javoblar tashkil etish, o‘rganilayotgan mavzu talabiga muvofiq so‘z, so‘z birikmasi, ibora va tasviriy ifodalar

<sup>13</sup> Qurbanova X. Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning metodik asoslari. P.f.n.dis. – Buxoro: 2005. B.147.

<sup>14</sup> To‘raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo‘yicha multimediali elektron o‘quv qo‘llanma yaratish texnologiyasi //Uzluksiz ta’lim. 2011, №5. B.80.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tanlash, matnlar yaratish mumkin. Jonajon o'lka hayoti, uning o'tmishi, buguni va ertasi, odamlari, ularning urf-odatlari, an'analari, til xususiyatlari ona tili mashg'ulotlari uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, til hodisalari o'lka materiallari bilan qanchalik uyg'unlashsa, dars samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi<sup>15</sup>. Masalan sifat mavzusi o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi o'quvchiga tanish joylarning suratidan foydalansa, ekranda o'zi yashaydigan hududning, u yerda joylashgan binolarningsuratini ko'rgan o'quvchi jonlanib ketadi: (1-ilova)



1-ilova

### **Ona tili darslarini hayotga bog'lash prinsipi quyidagilarni taqozo etadi:**

- a) grammatik qoidalar uchun jonli nutq va badiiy adabiyot namunalaridan misol keltirish. Hayotiy va chiroyli jumlalar o'quvchilarga chuqr singib boradi, ularning bilimlarini ongli o'zlashtirishlariga yordam beradi. Misollarning tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo'lsa, ona tili darslarining saviyasi yana-da ortadi;
- b) o'tilgan qoidalarni mustahkamlashda faktik materiallarga boy, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini hamda ijodiy qobiliyatini o'stirishga yordam beradigan mashqlardan foydalaniadi;
- v) o'quvchilar amaliy ish davomida nazariy bilimlarini og'zaki va yozma nutqlariga tatbiq etish malakasini egallaydilar. Turli topshiriq va mashqlarni erkin bajaradilar;
- g) og'zaki va yozma nutqni o'stirish mashg'ulotlari o'quvchilarning amaliy tayyorligiga bog'lab olib boriladi.

Ona tili o'qitish metodikasining vazifalari quyidagilardan iborat<sup>16</sup>:

1. Ona tili predmetining hajmi, mundarijasi, maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari, kursning bo'limlari, materiallarning sinflar bo'yicha taqsimotini aniqlash.

<sup>15</sup> To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyatova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) – T.: 2006, B.125.

<sup>16</sup> To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyatova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) – T.: 2006, 74.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2. O‘quvchi va o‘qituvchining vaqtini hamda kuchini tejash, shuningdek, darsning samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitishning eng qulay, foydali metod va usullarini tavsiya etish.

3. O‘quvchilarning ona tili dasturida belgilangan bilimlar sistemasini bir tartibda o‘zlashtirib, shu asosida muayyan malaka va iqtidor hosil qila olishlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar bilan bog‘langan masalalarni hal etish.

4. Nimani o‘rgatish? Qancha o‘qitish? Nima uchun o‘qitish? Qanday usullar bilan o‘qitish? Nima uchun u yoki bu bo‘limni o‘rganishda muayyan bir metoddan foydalanish kerak? kabi savollarga javob berish.

5. O‘zbek tili, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarini ishlatalishning qoidalarini o‘rgatish; turli xildagi lug‘atlardan keng foydalana olishni ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ish qog‘ozlarini yuritish ko‘nikmalarini; badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatini og‘zaki bayon eta olish madaniyatini shakllantirish.

6. Maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarni puxta o‘rganishga ko‘maklashish, ona tili orqali boshqa xalqlarning tillariga ham muhabbat uyg‘otish. Multimediali darsda ham shu vazifalarni amalga oshirish uchun harakat qilinadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili 6-sinf uchun darslik. – T.: “Tasvir”, 2013.

2. Mengliyev Sh. Multimediani ta’limda qo‘llash. [www.ta'lim](http://www.ta'lim) texnologiyalari.uz. 2014.12.10.